

SUG‘ORILADIGAN YERLAR EKOLOGIK HOLATIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA SABABLARI HAMDA ULARNING IQTISODIY JARAYONLARGA TA’SIRI

Sultonov Xudoyshukur G‘ayratovich

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: sultonovxudoyshukur@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sug‘oriladigan yerlar ekologik holatiga ta’sir etuvchi omillar va ularning mamlakat iqtisodiy jarayonlarga ta’siri haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va yer resurslarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘oriladigan yerlar, iqtisodiy samaradorlik, ekologik omillar, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy o‘shish, yer resurslari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о факторах, влияющих на экологическое состояние орошаемых земель и их влияние на экономические процессы страны. Также даны рекомендации по развитию сельского хозяйства и повышению экономической эффективности использования земельных ресурсов.

Ключевые слова: орошаемые земли, экономическая эффективность, экологические факторы, сельское хозяйство, экономический рост, земельные ресурсы.

ABSTRACT

This article provides information on factors affecting the ecological condition of irrigated lands and their impact on economic processes in our republic. Recommendations were also made on the development of agriculture and the improvement of the economic efficiency of the use of land resources.

Key words: irrigated lands, economic efficiency, environmental factors, agriculture, economic growth, land resources.

KIRISH

XXI – asr dunyo mamlakatlari o‘z oldiga eng muhim va yechimini kutib yotgan muamolarni bartaraf etishni maqsad qilib qo‘yishmoqda. O‘tgan asrlarda boshlangan sanoat inqilobi, texnologiyalar rivojlanishi va jamiyatning ehtiyojlari ortib borishi

natijasida tabiatdan keng miqyosda foydalanishga o'tishgan. Buning oqibatida insoniyat bugungi kunda misli ko'rinmagan ekologik muammolarga duch kelishmoqda. Bu kabi muammoga davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tish maqbul yechi sifatida qarashmoqda. Jamiyat va iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim ob'ektiv muammolarni hal etishga bog'liqdir. SHu nuqtai nazardan, qishloq va o'rmon xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi, jamiyat va iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida esa, eng muhim ishlab chiqarish vositasi, takror ishlab chiqarilmaydigan va o'rni almashtirilmaydigan yer resurslaridan foydalanish har qanday milliy iqtisodiyot yaxlit tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatni rivojlantirish, ayniqsa muayyan islohotlarni amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash o'z navbatida yerdan foydalanish iqtisodiyotining o'ziga xos masalalarini o'rganish va bilishga ob'ektiv bog'liqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi sur'atlari tabiiy resurslar muammolarini keskinlashtirdi va shu sababdan iqtisodiyotga ekologik talablarni oshirish zarurati paydo bo'ldi. Bunday muammolarni bartaraf qilish ekologiya iqtisodiyoti mexanizmlarini qo'llash asosida amalga oshiriladi. Ekologiya iqtisodiyoti mexanizmlari ikki asosiy qismdan iborat:

1) doimiy harakatdagi institutlar — tabiiy resurslar kadastri, moddiy-texnik ta'minot, tabiiy resursdan foydalanganlik uchun to'lovlar, atrof muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar, kreditlar berish va soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlar, soliqdan ozod qilish,

2) iqtisodiy rag'batlantirish — ekologik sug'urta. Tabiat muhofazasi asosiy ishlab chiqarish fondlari, ekologik toza mahsulotlarga rag'batlantiruvchi baholarni joriy etish, ekologik nopok mahsulotlar bahosini pasaytirish, ekologik xizmatlar bankini shakllantirish, tabiatdan foydalanish bo'yicha shartnoma munosabatlarini takomillashtirish.

So'ngi yillarda mamlakatimizda sug'oriladigan yerlardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari va me'yoriy aktlar qabul qilindi. Ularning asosiy jihatlaridan biri bu – sug'orib ekiladigan yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanishni taqiqlash, tuproq tarkibini doimiy yaxshilab borish mexanizmini yaratish, sug'orib ekiladigan yerlarning meliorativ halotini monitoring qilish ishlarini tizimli shakllantirish hamda bu sohada iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish va tartibga solish kabi ustuvor yo'nalishlarning ishlab chiqilishidir. Shunga qaramasdan hozirgi kunda yer munosabatlarini isloh etishning asosiy maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa qishloq va o'rmon xo'jaligi hududlarida yerdan foydalanish samaradorligini hamda ekologik holatining buzilishini oldini olishga qaratilgan rejali ishlarni amalga oshirishga erishib bo'lmayapti.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish jarayonlarini ta'minlash maqsadida yer resurslaridan foydalanish tizimida innovatsion tarkibiy, institutsional va investitsiyaviy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari, sohalari va hududlari o'rtasida yer resurslarini samarali va balanslashgan taqsimlash va qayta taqsimlash orqali ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini esa, xom-ashyo bilan uzluksiz ta'minlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish, barqaror va samarali ish joylarini tashkil qilish istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan eng muhim strategik ustuvor vazifalardan sanaladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu vazifalarni amalga oshirish sug'oriladigan yer resurslaridan foydalanish tizimini rivojlantirishning innovatsion ilmiy-nazariy asoslarini yaratishga qaratilgan kompleks va tizimli choralarning iqtisodiy mexanizmi va "yo'l xaritalar"ini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Shuni takidlab o'tish kerakki, hozirgi kunda O'zbekistonning 70 foiz yoki 31,4 million gektar yeri qurg'oqchil maydonlardan iborat bo'lib, ularni asosan tabiiy sho'rlangan, ko'chma barxan qumliklar va qumli cho'llar hamda issiq garmsel shamollari ta'siridagi hududlar tashkil qiladi. Orol dengizi suv sathining qurishi tufayli O'zbekistonda yana qo'shimcha 3 million gektardan ortiq maydonda Orolqum paydo bo'ldi. Natijada ushbu regionda ekologik muhit yomonlashib, cho'llanish jarayonlari yanada kuchaydi va ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi. Birgina Orolbo'yi mintaqasida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlarida 2000—2018-yillar davomida 8 million gektardan ortiq yer maydonlari turli darajada sho'rlandi va 1 million gektar yer maydonlarida eroziya holatlari kuzatildi. Bu esa ushbu regionning 96 foiz hududini tashkil etadi. Cho'llanish ta'sirida ushbu region hududlarida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi qariyb 40-45 foizgacha kamayib ketdi.

Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish uchun kurashda eng muhim vazifalardan biri yerlarning sho'rlanish darajasini pasaytirishdan iborat, chunki ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy ishlanmalariga ko'ra, kam sho'rlangan yerlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish sho'rlanmagan yerlardagiga nisbatan hosildorlikni o'rta hisobda 6-7 foizga, o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan yerlarda esa 40-50 foizga va undan ham ko'proq pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlanganda, hududda yerlarning sho'rlanish darajasi respublikada eng baland ko'rsatkichlardan birini, umumiy sho'rlangan maydonlar jami sug'oriladigan yer maydonlarining qariyb 97 foizini tashkil etadi.

Ma'lumki, Respublikamiz hududidagi sug'oriladigan yerlarning barchasidan ham to'liq foydalana olinmayapti sababi, mavjud sug'oriladigan yerlarning ekologik holati

turli darajada buzilishi oqibati ko‘zlangan hosilga salbiy tasir ko‘rsatayapti. Buning oqibatida sug‘oriladigan yerlardan olinadigan foyda miqdori ham kamayib ketmoqda. Yuqoridagi so‘zimizning isbotini quyidagi (1-jadvalda) ko‘rishimiz mumkim.

O‘zbekiston Respublikasi hududida sug‘oriladigan yerlarning turli darajada sho‘rlanish ko‘rsatkichlari (2020 yil, ming ga)

1-jadval

Jami sug‘oriladigan yerlar ming ga.	Shu jumladan						Jami sho‘rlangan yerlar, ming ga.	
	kam sho‘rlangan		o‘rta sho‘rlangan		ko‘p sho‘rlangan		maydo	%
	maydon	%	maydon	%	maydon	%		
3269,3	1267	38,4	694	21,0	448	13,6	2433	73

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, Respublikamiz hududida sug‘oriladigan yerlar cheklangan va ular turli darajada sho‘rlangan yoki boshqa og‘ir metallar bilan ifloslan. Sho‘rlanish darajalarini tahlil qiladiga bo‘lsak, kam sho‘rlangan yerlar 1267 ming ga yoki 38,4 foizni tashkil qilgan, o‘rta sho‘rlangan yerlar 694 ming ga yoki 21 foizni tashkil qilgan, ko‘p sho‘rlanga yerlar 448 ming ga yoki 13,6 foizni tashkil qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki, Respublikamizda aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlash asosan sug‘oriladigan yerlar hisobiga amalga oshiriladi hamda mamlakatdan eksport qilinadigan oziq-ovqatlar ham shular jumlasidandir. Shunday ekan sug‘oriladigan yerlardan maksimal foydalanish hamda mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarishda samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Shuning uchun bu ekologik muammolarni tez orada ijobiy hal qilish xamda mavjud yerlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini jadallashtirish muhim bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishning iqtisodiy mexanizmi. Monografiya. -T.:“Fan”, 2009. – 224 b.
2. Ubaydullaev K. Orolbo‘yi ekologik sharoitida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni modellashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. diss. d.e.n. // T.: 2005.

3. Altiev A.S. Fermerlik – yer resurslaridan foydalanishning samarali shakli // «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» agrar-iqtisodiy. - ilmiy-ommabop jurnali. -T.: 2007. - № 4.
4. Altiev A.S., Aliev G'.Q. Yerdan foydalanishda iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi, Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Toshkent davlat agrar universiteti: "O'zbekiston tuproqlari va yer resurslari: ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish" ilmiy – amaliy anjumani materiallari. - T.: 2008.
5. Salimov B.T., Yusupov M.S. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi. – T.: TDIU, 2009. - 300 b.